

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**TOSHKENT SHAHRIDA ““MEI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI” FEDERAL
DAVLAT BUDJETI OLIY TA’LIM MUASSASASI FILIALINI TASHKIL ETISH
TO‘G‘RISIDA**

Respublikaning energetika tarmog‘i uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, oliv ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, 2018-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarni amalga oshirish yuzasidan amaliy tadbirlar rejasi (“Yo‘l xaritasi”)ni ijro etish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Energetika vazirligi, Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi, “O‘zbekgidroenergo” AJ, ““MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budgeti oliv ta’lim muassasasining (Rossiya Federatsiyasi) (keyingi o‘rinlarda — Universitet) Toshkent shahrida ““MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budgeti oliv ta’lim muassasasi filialini (keyingi o‘rinlarda — Filial) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Filial faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

mamlakatimiz energetika tarmog‘i uchun ta’lim dasturlari va oliv ta’lim sifatiga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiq yuqori malakali muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash;

zamonaviy ta’lim dasturlari va o‘qitish shakllarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini, ilm-fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini tatbiq etish, o‘quv-pedagogik salohiyatni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;

energetika, elektrotexnika, issiqlik texnikasi sohasida fundamental, amaliy ilmiy va innovatsion tadqiqotlar olib borish, elektr jihozlari va tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, elektr energetikasi tizimlarining tejamkorligi, ishonchliligi va barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

ilm-fan va ta’lim sifatini, uzuksizligi va uzviyligini oshirish, jahon ta’limi va ilmiy hamjamiyatiga maqsadli integratsiyalashuv orqali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim, ilmiy-tadqiqot va sanoat ishlab chiqarish faoliyatining uzviy integratsiyasi uchun shart-sharoitlar yaratish;

ta’lim va ilmiy-texnik sohalarda xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash;

shartnoma asosida energetika tarmog‘i tashkilotlarning ehtiyojlarini hisobga olgan va kelishilgan holda talab yuqori bo‘lgan bakalavriat ta’limi yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

Filial Universitetning alohida tarkibiy bo‘linmasi — oliv ta’lim muassasasi hisoblanadi;

Filial kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan va kelishilgan holda bakalavriat ta’limining asosiy yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha barcha darajadagi mutaxassislarning tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, shu jumladan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi;

Filialda ta’lim O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda Universitet tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv rejali va ta’lim dasturlari asosida Rossiya Federatsiyasining federal ta’lim standartlariga muvofiq rus tilida, keyinchalik boshqa tillarda ham amalga oshiriladi;

Filialning ta’lim faoliyati 2019/2020 o‘quv yilidan boshlanadi;

Filialga abituriyentlarni qabul qilish va bitiruvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda Universitet tomonidan belgilanadigan talablar, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

Filial bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat sifatida tan olinadigan Universitetning belgilangan namunadagi diplomi beriladi;

Filial faoliyati O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Universitet:

o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini joriy etish;

Filial mutaxassislarining malakasini oshirish va professor-o‘qituvchilar tarkibini qayta tayyorlash;

Filialning kutubxona fondini shakllantirish hamda uni zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy-texnik adabiyotlar bilan to‘ldirishga ko‘maklashishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budgeti oliy ta’lim muassasasi filialida kadrlar tayyorlash bo‘yicha bakalavriat ta’limining asosiy yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budgeti oliy ta’lim muassasasi filialining Vasiylik kengashi (keyingi o‘rinlarda — Vasiylik kengashi) tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budgeti oliy ta’lim muassasasi filialini tashkil etish bo‘yicha Tashkiliy komissiya (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy komissiya) tarkibi [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Belgilab qo‘yilsinki:

a) Filialga qabul kvotlari Universitet, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda Energetika vazirligi tashkilotlari, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekgidroenergo” AJ, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralarning mutaxassislariga nisbatan real ehtiyojini inobatga olgan holda, Vasiylik kengashi qaroriga binoan tasdiqlanadi;

b) davlat granti asosida ta’lim olgan Filial bitiruvchilar Vasiylik kengashi tomonidan besh yildan kam bo‘lmagan muddatga majburiy ishlab berish uchun respublika energetika tarmog‘i tashkilotlariga taqsimlanadi;

v) Filial faoliyatini moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

talabalarni davlat grantlari bo‘yicha o‘qitish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligiga ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan, biroq Filialga o‘qishga qabul qilinadigan talabalar umumiy sonining 30 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda;

talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar;

Vasiylik kengashi qarorlari asosida shakllantiriladigan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda maqsadli badallari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlarning grantlari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

g) Universitet mutaxassislarini jalb qilish bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlari, Filialdagi mahalliy o‘qituvchilarning stajirovka o‘tash va malakasini oshirish xarajatlarini moliyalashtirish “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekgidroenergo” AJ, Filialning budgetdan tashqari mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hamda maqsadli badallari hisobidan amalga oshiriladi;

d) Universitetdan jalb qilinadigan professor-o‘qituvchilarning xizmat safari xarajatlari uchun to‘lov:

30 kungacha bo‘lgan qisqa muddatli xizmat safarlari bo‘yicha — Rossiya Federatsiyasining qonun hujjatlarida oliy ta’lim muassasalari xodimlari uchun belgilangan normalarga muvofiq;

uzoq muddatli xizmat safarlari bo‘yicha — o‘quv jarayoni ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tuziladigan shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi;

e) Vasiylik kengashining qaroriga binoan Filial xodimlariga Vasiylik kengashi tomonidan shakllantiriladigan mablag‘lar va Filialning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan maxsus uskunalar bilan ishslash ko‘nikmasiga ega, yuqori malakali xodimlar uchun shaxsiy ustamalar belgilanishi mumkin;

j) Filial ta’minoti uchun budget ajratmalari 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining ijtimoiy soha bo‘yicha tasdiqlangan xarajatlar parametrlari doirasida ajratiladi, 2020-yildan boshlab esa mazkur sohaning yillik xarajatlar parametrlarida nazarda tutiladi.

7. “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “O‘zbekgidroenergo” AJning Filialni tashkil etish, uning moddiy-texnik va o‘quv bazasini shakllantirish, shu jumladan Filial uchun ajratilgan bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter va orgtexnika, adabiyotlar va kutubxona fondi, inventar, mebel va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan jihozlash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni quyidagi nisbatlarda o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin:

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ — 50 foiz;

“O‘zbekgidroenergo” AJ — 50 foiz.

8. Quyidagilar operativ boshqaruvin huquqi asosida:

Toshkent shahri, Olmazor tumani, Mirzo G‘olib ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan Olmazor politexnika va standartlashtirish kasb-hunar kollejining bino va inshootlari tutash hududi bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga berilsin;

Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qoraqamish-3 manzilida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatining bino va inshootlari tutash hududi bilan birga Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga berilsin va keyinchalik ushbu joyda Filial bepul foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

Belgilansinki, hozirgi kunda Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati binolarida tahsil olayotgan Toshkent bank kolleji o‘quvchilari o‘qish tugagunga qadar ta’lim jarayonini Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga berilayotgan bino va inshootlarda, Olmazor politexnika va standartlashtirish kasb-hunar kolleji o‘quvchilari esa Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga berilayotgan bino va inshootlarda davom ettiradi.

9. Tashkiliy komissiya (A. Sultonov):

Oldingi tahrirga qarang.

2021-yil 1-avgustga qadar Filialga taqdim etilayotgan bino va inshootlar, shu jumladan o‘quv-laboratoriya korpusi rekonstruksiya qilinishi, Filial talabalari va o‘qituvchilari yashashlari uchun yotoqxonalar va sport kompleksi qurilishi;

2022-yil 1-yanvarga qadar Filial joylashtirilishi, Filialga taqdim etilayotgan bino va inshootlarning zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter va orgtexnika, adabiyotlar va kutubxona fondi, inventar, mebel va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanishini ta’milasini.

(9-bandning ikkinchi va uchinchi xatbosilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-maydagи PQ-5107-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.05.2021-y., 07/21/5107/0434-son)

10. Filialga o‘qituvchilik va ilmiy ishlari uchun taklif qilinadigan xorijlik professor-o‘qituvchilarning yashash hamda transport xarajatlarini tuziladigan shartnomalar asosida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tariflarda to‘lashga ruxsat berilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi Universitet, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “O‘zbekgidroenergo” AJ bilan o‘zaro hamkorlikda:

bir oy muddatda ta’sis hujjatlari ishlab chiqilishi va kelishilishi, shuningdek, belgilangan tartibda Filial davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi;

ikki oy muddatda Filial tuzilmasi tasdiqlanishi;
2019-yil 1-avgustga qadar Filialning tanlov asosida malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi bilan to‘ldirilishini ta’minlasin.

12. Filialga taqdim qilinayotgan bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, qurish, kapital ta’mirlash va jihozlash bilan bog‘liq ishlarning bajarilishi bo‘yicha quydigilar:

“4-son qurilish direksiyasi” MChJ — buyurtmachi;
“Gidroloyiha” AJ — bosh loyiha tashkiloti;

Oldingi tahrirga qarang.

“Enter Engineering Pte. Ltd. (Singapur)” — “tayyor holda topshirish” sharti asosida jalb qilinadigan bosh pudratchi tashkilot etib belgilansin.

Bunda, bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash bilan bog‘liq ishlarning bajarilishi bo‘yicha qurilish, loyihashtirish va moliyalashtirish ishlarini bir vaqtning o‘zida olib borishga hamda tovar (ish, xizmat)lar, qurilish materiallari, xomashyo, butlovchi qismlar va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi)lar hamda ularning rasmiy dileyrlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokaralarni o‘tkazish va eng maqbul takliflarni tanlab olish shartlari asosida shartnomalar tuzishga istisno tariqasida ruxsat berilsin.

(*12-bandning to‘rtinch xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-maydagi PQ-5107-sonli qaroriga asosan to‘rtinch va beshinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.05.2021-y., 07/21/5107/0434-son*)

13. Filialga ikkita yengil avtotransport, jumladan bitta xizmat va bitta navbatchi avtotransport vositasini saqlashga limit ajratilsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda 2020-yil va keyingi yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini shakllantirishda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “O‘zbekgidroenergo” AJ mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan, Filialga taqdim qilinayotgan bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha loyihalari belgilangan tartibda kiritilishini ta’minlasin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Filial buyurtmanomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o‘qituvchilar tarkibi va ma’muriy xodimlar hamda ularning oila a’zolari uchun kirish vizalari konsullik hamda boshqa yig‘imlar undirilmasdan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Filial buyurtmanomalariga binoan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o‘qituvchilar tarkibi va ma’muriy xodimlar hamda ularning oila a’zolari uchun davlat boji undirilmasdan belgilangan tartibda ko‘p martalik vizalar berilishi va uzaytirilishini, shuningdek, ularning yashash joyida vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda uning muddati uzaytirilishini ta’minlasin.

17. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Filial buyurtmanomalariga binoan Filial faoliyatini tashkil qilishda ishtiroy etadigan malakali xorijiy mutaxassislarini respublikaga jalb etish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini), shuningdek, ko‘rsatib o‘tilgan fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga tasdiqnomalar berilishini (muddati uzaytirilishini) ta’minlasin.

18. 2022-yil 1-yanvarga qadar Filialni rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash, jihozlash va uning faoliyatini ta’minlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan o‘quv va ilmiy laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlar, inventar, qurilish materiallari va moddiy-texnik resurslar bojaxona to‘lovlaridan (bojaxona rasmiylashtiruv) uchun yig‘imlardan tashqari) ozod etilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyuldagagi “Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 557-son qarorining **4-bandi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

20. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Energetika vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘sishimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

21. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 4-iyun,
PQ-4350-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi PQ-4350-son qaroriga
1-ILOVA

Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filialida kadrlar tayyorlash bo‘yicha bakalavriat ta’limining asosiy yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari

1. Elektr energetikasi va elektroteknika
2. Issiqlik energetikasi va issiqlik texnikasi

Izoh. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) ro‘yxatiga buyurtmachi tashkilotlar ehtiyojlarini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi bilan kelishgan holda Filialning Vasiylik kengashi tomonidan o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi PQ-4350-son qaroriga
2-ILOVA

Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filialining Vasiylik kengashi

TARKIBI

1. A.S. Sultanov — O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri, *Vasiylik kengashi raisi*
2. I.U. Majidov — O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri, *Vasiylik kengashi raisi o‘rinbosari*
3. J.T. Mirzamaxmudov — O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o‘rinbosari — “O‘zatom” agentligi bosh direktori
4. U.M. Mustafoyev — “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi
5. R.G. Mubarakshin — “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruvi raisi
6. D.A. Isakulov — “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi
7. A.A. Sanginov — “O‘zbekgidroenergo” AJ boshqaruvi raisi
8. B.S. Yuldashev — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti
9. B.F. Islomov — O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi raisi
10. Q.S. Sanaqulov — “Navoiy KMK” DK bosh direktori
11. *lavozimiga ko‘ra* — Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filiali ijrochi direktori — direktor o‘rinbosari

Izoh. *Vasiylik kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi PQ-4350-son qaroriga
3-ILOVA

Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filialini tashkil etish bo‘yicha Tashkiliy komissiya

TARKIBI

1. A.S. Sultanov — O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri, *Tashkiliy komissiya raisi*
2. U.M. Mustafoyev — “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi, *Tashkiliy komissiya raisi o'rinnbosari*
3. A.A. Sanginov — “O'zbekgidroenergo” AJ boshqaruvi raisi
4. I.U. Majidov — O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri
5. T.A. Ishmetov — O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o'rinnbosari
6. J.T. Mirzamaxmudov — O'zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o'rinnbosari — “O'zatom” agentligi bosh direktori
7. D.X. Axatov — O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri o'rinnbosari
8. R.G. Mubarakshin — “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ boshqaruvi raisi
9. D.A Isakulov — “O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruvi raisi
10. J.A. Artikxodjayev — Toshkent shahar hokimi
11. S.M. Turabdjanov — Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori
12. *kelishilgan holda* — “MEI” milliy tadqiqot universiteti” Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi vakili
13. J.A. Toshev — Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti energetika fakulteti dekani

Izoh. *Tashkiliy komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2019-y., 07/19/4350/3241-son; 07.05.2021-y., 07/21/5107/0434-son)